

INKLYUZIV TA'LIMNI TADQIQ ETGAN OLIMLAR VA ULARNING TADQIQOTLARIGA YONDASHISH.

Omonova Sevara Nurilla qizi ¹

¹ *Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Pedagogika fakulteti Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi 1-kurs magistranti*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.02.2025

Revised: 05.02.2025

Accepted: 06.02.2025

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limni tadqiq etgan olimlar va ularning tadqiqotlariga yondashish haqida so'z yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR:

Inklyuziv ta'lim, defeklogik, pedagogika, psixologik, tadqiqotlar, stereotiplar, inklyuziv madaniyat, kasbiy kompetensiya.

KIRISH. Bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanishi kundan kunga dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda, shuningdek, imkomiyati cheklangan alohida talim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, inklyuziv ta'lim tizimi haqida ko'plab olimlar o'zlarining tadqiqot ishlarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishda samarali metodikalar yaratish va uning tahlili haqida so'z yuritiladi.

Hozirgi vaqtda salomatlik imkoniyati cheklangan bola ta'limidagi to'siqlar va muammolar jamiyat ta'lim tizimining atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabatlari nomukammalligini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ijtimoiy modelga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. N.V.Borisova, S.A.Prushinskiy ta'kidlaydilarki, inklyuziv ta'lim tayanadigan ijtimoiy modelga ko'ra, "nogironlikning sababi faqat kasallikning o'zida emas, balki jamiyatdagi mavjud jismoniy (ijtimoiy tuzilmalar va tartiblarga doir) va tashkiliy (munosabatlarga doir) to'siqlar, stereotiplar va noto'g'ri qarshlardir.

S.V.Alixinaning fikricha, “inklyuziya-ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish va imkoniyati cheklangan shaxslarning birgalikda sifatli ta’lim olishga huquqlarini tan olish maqsadlarini tushunishning bir xil ma’noda bo‘lishini nazarda tutuvchi ijtimoiy konsepsiya” hisoblanadi. Inklyuziv ta’limni eng umumiy tarzda ta’lim siyosati amaliyotining umumiy ta’lim asoslariga eng ko‘p darajada tegishli bo‘lgan yangi istiqbolli strategik yo‘nalishi sifatida belgilanadi. Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning xalqaro tajribasi uzoq muddatli izchil, uzliksiz, bosqichma-bosqich va kompleks yondashuv xususiyatiga ega strategiya sifatida 1960 yillardan hozirgi kunlargacha amalga oshirilmoqda. Bundan biz kelib chiqib, imkoniyati cheklangan shaxslar bilan sog‘lom shaxslarning bir biriga mehr-oqibatda bo‘lishi va ularning ta’lim huquqlarini tan olishga qaratilgan tushuncha deb bilamiz.

N.N.Malofeyevning fikricha, faqat shu bosqichlardan keyingina inklyuziv ta’lim g‘oyalarini amaliyotga tatbiq qilishga o‘tish amalga oshirildi. Inklyuziv ta’limni joriy qilish jarayonida to‘siqlarsiz muhitni tashkil qilish qiyinchiliklarigina: panduslar borligi, maktabning bir qavatli dizayni, umumiy foydalanish joylarini qayta jihozlash, shtatlar jadvaliga mutaxassis defektologlarni kiritishgina emas, balki “keng tarqalgan stereotiplar va noto‘g‘ri tushunishlar, shu jumladan o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarning integratsiyasiga tayyorligi yoki rad etishidan iborat” ijtimoiy xususiyatli qiyinchiliklar ham mavjud. Shu munosabat bilan inklyuziv ta’lim g‘oyalarini amalyotga joriy qilish, birinchi navbatda, maktab jamoasi tomonidan inklyuziya qadriyatlarini tan olish, har bir bolani uning “boshlanishidagi” imkoniyatlaridan qat’iy nazar, rivojlanishga ehtiyojini amalga oshirish, individuallikni qo‘llab-quvvatlash zarurligini tushunish bilan bog‘liq ta’lim muassasasining inklyuziv madaniyatini yaratishni nazarda tutadi.¹

T.But va M.Eynskounning fikrlaricha, “o‘tkaziladigan islohotlar va o‘zgartirishlarning asosi hisoblanadi..., hamkorlikda ishlash g‘oyalariga qo‘shilishadigan, o‘zining barcha ishtirokchilari rivojlanishini rag‘batlantiradigan..., xavfsiz va murosali jamoani yaratishga yordam beradi, ta’lim va o‘qitish siyosati va amaliyotini o‘zgartiradi.” Inklyuziv madaniyat kasbiy pedagogik faoliyat jihatidan kasbiy pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi va olimlar tomonidan “inklyuziv ta’lim qadriyatlari va texnologiyalarini yaratish va o‘zlashtirishga yordam beruvchi, bilimlar, ko‘nikmalar, ijtimoiy-shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar tizimini integratsiyalovchi, pedagogga inklyuziv ta’lim sharoitida samarali ishlash imkonini beruvchi integratsiyalashgan shaxsiy sifat” deb belgilanadi.

¹Inklyuziv Ta’lim: nazariya va amaliyot. Qodirova Feruzaxon Usmanovna. Chirchiq 2022. 36-37 betlar

Tadqiqotchilar ta'kidlaydilarki, "inklyuziv madaniyatning rivijlanishi uchun imkoniyati cheklangan bolalarning o'zlari va ularning ota-onalari ta'lim sharoitlari va natijalari uchun mas'uliyatni o'zlariga olishda faol bo'lishlari prinsipial jihatdan muhim". Bizni yurtimizda bolalar baxtiyor va jamoa bo'lib kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'raligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi. "Ta'lim tizimi shunday bo'lishi kerak deb yozadi L.S. Vigotskiyning fikricha nuqsonli bolaning tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ya'ni L.S. Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish- maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish e'tirof etgan.

Nogiron o'quvchilarning ta'lim tizimi nazariyasi haqida gapiradigan bo'lsak, u holda U. Bronfenbrennerning 1979 yil ishlarini esga olish kerak. Bu olimning fikricha, inson rivojlanish jarayonida ya'ni ulg'ayotgan, o'sayotgan individ atrof-olamni keng, differentsiyalashgan va adekvat anglay boshlaydi. Bunday bo'lishning sababi vaqt o'tishi bilan bolalar o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy muhitlarini o'zgartirib, harakat va muloqotga katta qiziqish bilan qaraydilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning xulq-atvorlarini nazorat qilish emas, balki ularda o'z-o'zini boshqarish malakalarini rivojlantirish kerak.

Yana bir shunga o'xshash konsepsiya Brim konsepsiyasidir, 1975 yilda konsepsiya yuqoridagi fikrning davomi hisoblanadi, ya'ni uning ta'kidlashicha har bir insonning o'z ta'lim dasturi, qonun- qoidalari bor. Shuning uchun ham biror bir guruhning faoliyatida ularning qonun-qoidalarini o'rganmay turib, ishtirok eta olmaymiz. Shuningdek o'quvchilar maktab qonun-qoidalarini o'zlashtirib olishlari o'qituvchilar esa ularga o'quv muassasasining ijtimoiy va tashkiliy tizimini mukammal o'rgatishlari kerak. Alohida ta'lim olayotgan bola o'z-o'zini ijtimoiylashishini chegaralab, bilim olish doirasi kam rivojlanib shu bilan birgalikda hayotga tayyor bo'lishi qiyinlashishga olib keladi.²

² Inklyuziv Ta'lim. Gospital pedagogika. N.B. Goipova Namangan-2024. 98-99 bet

AQSHda 1875 yildan 1914 yilgacha majburiy maktab ta'limi joriy qilinga edi. Shunga muvofiq ravishda aqli zaif hisoblangan va tarbiyasi og'ir, kar, jismoniy nogironlar uchun maxsus sinflar tashkil qilingan edi.

Bu vaqtda Milliy ta'lim assotsiatsiyasi maxsus ta'lim Departamentini tashkil qildi. Aqliy qobiliyatni tekshirishga mo'ljallangan testlar, psixologik nazariyalar rivojlandi, ishchi kuchi ko'paya boshladi. Bu omillar maktab tizimiga ta'sir qila boshladi, ya'ni o'quvchilar orasidagi individual farqlar va aniqlash va ularni o'lchash tamoyillari tuzildi.

1960-1970 yillarda nogiron o'quvchilarning omadsizligida maktabni aybdor hisoblab, maktabkarga qarshi norozi ovozlar kuchaydi. Djeyn Merser 1971 yil tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, har bir ijtimoiy tizim insonga yangi tushunchalarni beradi, shuning uchun nogironlik ijtimoiy kelishuvlarning mahsuli hisoblandi.

1962 yilda Reyxolds va I.Denoning takliflari asosida "sevislar kaskadi" degan tushuncha joriy qilindi. Bu shundan modelki, bu model asosida kasalxonada yoki uy sharoitida, maxsus maktab yoki maxsus sinflarda bilim olayotgan nogiron o'quvchilarning, shuningdek umumta'lim maktablardagi o'quvchilarning xohish-istaklarini inobatga olgan holda turli qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilishi ko'zda tutiladi.

1977 yildagi "Hamma nogiron bolalar uchun ta'lim tizimi" haqidagi qonunda qo'shimcha xizmatlar turi ko'rsatilgan bo'lib, bu xizmatlar o'quvchilarni maxsus ta'limni olishlariga yordam beradi. Bunday xizmatlarga quyidagilar kiritilgan: transport, logopet, audologiya, psixologiya, fizioterapiya, tibbiy xizmat, maktab shifokori yoki hamshirasi, ijtimoiy xodim, psixologlarni maslahat berishi.

1990 yillarda AQSHda barcha nogiron bolalar uchun ta'lim haqidagi qonun ishlab chiqildi. Uning tamoyillari bilan individuallashtirilgan ta'lim, shu bilan birga nogiron ta'limi haqidagi qonun ham ishlab chiqildi. M.Reyxolds 1989 yil maxsus ta'lim muhitini nogiron bolalarni ommaviy maktablarda ta'lim sharoitlarining yaxshilanishi maxsus sinf va maktablarga yuborilayotgan bolalar sonining kamayishiga olib keladi. Hozirda Amerikada maktablarni shunday qilishiga jamiyatning qiziqishi ortib bormoqda, chunki bunday maktablarga barcha o'quvchilarni jalb qilish imkoni ortadi.

Shu tariqa inklyuziya-ta'lim olishni tashkil qilishning shunday asosiki, bunda hamma o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan birgalikda o'zlarining yashash joylariga taaluqli bo'lgan maktablarda ta'lim oladilar.³

³ Inklyuziv Ta'lim:nazariya va amliyot.Qodirova Feruzaxon Usmonovna.Chirchiq 2022. 40 b.

Inklyuziya tushunchasi zamonaviy ta'lim siyosatiga Madlen Uill xonimning ta'lim siyosatidaga ishlari asosida kiritilgan. Uillning takidlashicha, pedagoglar ko'pchilik nogiron o'quvchilar uchun "pull-out" xizmati samarasiz ekanligini ta'kidlashmoqda. "Pull-out" bu shunday xizmatki, sinfda dars olib o'quvchilarni dasrdan chiqib ketishlarini talab etadi. Gap shundaki, ko'pincha maxsus sinflarga turli guruhlardagi o'quvchilar: pedagogik qarovsiz bo'lgan, nogiron, aqli zaif, xulqida qiyinchiligi bo'lgan, diqqati tarqoq va giperaktiv o'quvchilar yuborilar edi. Bundan tashqari tadqiqotchilar maxsus muassasalarga kelgan bolalar hech ommaviy maktablarga qaytib kelmasligidan tashvishlanar edilar. Inklyuziv ta'limning asoslari shundan iboratki, nogiron o'quvchilarni turli ehtiyojlarini qondirishi kerak. Shunga ko'ra bunday maktablarning oldiga qo'ygan maqsadi shundaki, barcha o'quvchilarga to'laqonli ijtimoiy hayotida, jamoa ishlarida va mahalliy jamiyatda

Faol ishtirok etishda, shu jamiyatning bir a'zosi sifatida bir biriga yordam berishga qaratilgan. Inklyuziv maktablar va sinflarda bolalarning turar joylari bo'yicha o'qitiladi. Bu tamoyillar shuni bildiradiki:

Hamma bolalar o'z turar joylaridagi maktablarining ta'lim va ijtimoiy hayotiga kiritilishlari kerak;

inklyuziya bu o'quvchini boshidan ta'limga kiritish;

inklyuziv maktabning vazifasi shundan iboratki, har bir bolaning ehtiyojini qondirish tizimini yaratish;

inklyuziv maktablarda nafaqat nogiron bolalarning, balki boshqa bolalarning ham hayotda o'z o'rinlarini topishlariga, o'zlariga ishonch hissini uyg'otishlariga, hayotda muvoffaqiyatlarga erishishlariga yordam beriladi.

Inklyuziv maktabning maqsadi hamma o'quvchilarga ijtimoiy hamyotda, jamoada va jamiyatda faol ishtirok etishga imkon yaratib berish va jamiyatning bir a'zosi sifatida bir-birlariga yordam berish, shu bilan birga to'laqonli aloqalarni ta'minlashdan iborat.⁴ Bu shunday bebaho qat'iy talabki, bunda hamma maktab va jamiyat a'zolari bir biri bilan bog'liq va o'quvchilar nafaqat bir-birlari bilan ta'lim jarayonida o'zaro aloqada bo'ladilar, balki auditoriyadagi qabul qilingan jarayonlarda ham bir-birlarini qo'llab –quvvatlaydilar.⁵

Xulosa qilib aytganimizda inklyuziv ta'limni yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holatda umumta'limga birlashtirish samarali hisoblanadi. O'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga

⁴ Ferguson, Meer, Jeanchild et al. 1992.

⁵ Sfilisbury, Palombaro, Xolloivud 1993.

olib, dars jarayonlarini tashkil qilish va ular orasida kamsitilish, ajratilish xususiyatlarini oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inklyuziv Ta'lim: nazariya va amaliyot. Qodirova Feruzaxon Usmanovna. Chirchiq 2022. 36-37 betlar
2. Inklyuziv Ta'lim. Gospital pedagogika. N.B.Goipova Namangan-2024. 98-99 bet
3. Ferguson, Meer, Jeanchild et al. 1992.
4. Sfilisburiy, Palombaro, Xolloivud 1993.

